

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Toshkent viloyati oilaviy marosimlarning etnohududiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish hamda “Toshkent viloyati oilaviy marosimlari” dasturiy ta’minotini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Toshkent viloyati oilaviy marosimlarning etnohududiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish hamda “Toshkent viloyati oilaviy marosimlari” dasturiy ta’minotini yaratish bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Toshkent viloyati oilaviy marosim qo‘shiqlarining janrlar tarkibi, genetik asoslari va badiiyati tadqiq etiladi; - Toshkent viloyati oilaviy marosim folklorining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi; - to‘y marosim qo‘shiqlarining janrlar tarkibi tasnif qilinadi; - bola tug‘ilishi va uning beshik davri bilan bog‘liq urf-odat, rasm-rusum va marosimlar ular bilan bog‘liq aytm, olqish hamda qo‘shiqlari kompleks tahlil qilinadi; - xatna to‘yi marosimi folkloriga xos lokal xususiyatlar aniqlanadi; - nikoh to‘yi marosim, urf odatlari va qo‘shiqlarining poetik xususiyatlari tadqiq etildi; - to‘plangan manbalar asosida Toshkent viloyati oilaviy marosimlarning etnohududiy xususiyatlari bo‘yicha monografiya nashr etiladi; - “Toshkent viloyati oilaviy marosimlari” dasturiy ta’minotini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi va Toshkent viloyati hokimligida sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari		

****Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart***

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Qashqadaryo viloyati mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq folklor namunalari, urf odatlarnini yozib olish va ilmiy tadqiq etish hamda mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq audiovizual asarlar to‘plamini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Qashqadaryo viloyati mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq folklor namunalari, urf odatlarnini yozib olish va ilmiy tadqiq etish hamda mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq audiovizual asarlar to‘plamini yaratish bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Qashqadaryo vohasi marosim qo‘shiqlari genezisi etnofolkloristik jihatdan tahlil qilinadi, uning janr xususiyatlari aniqlanib tasniflanadi; - voha qo‘shiqlarining badiiyatini tilimizdagi tasviriy vositalar yordamida hosil qilinishi masalasi o‘rganiladi; - mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq urf odatlarni g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, tabiati va badiiyati o‘rganiladi; - folklor-etnografik jamoalar repertuarida bugungi kunda Qashqadaryo vohasiga xos qo‘shiqlarning sahnada yashash shakllari ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi; - Qashqadaryo vohasi marosim qo‘shiqlaridagi an‘anaviy motivlar va obrazlar tizimining tarixiy asoslari tadqiq etiladi; - Qashqadaryo vohasi marosim qo‘shiqlari janr tarkibidagi struktural, funksional o‘zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi; - Qashqadaryo viloyati mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq folklor namunalari, urf odatlarnini yozib olish va ilmiy tadqiq etish hamda mavsumiy marosimlar bilan bog‘liq audiovizual asarlar yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi va Qashqadaryo viloyati hokimligida sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari		

****Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart***

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg‘iz keksalar va nogiron shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlarini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg‘iz keksalar va nogiron shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlarini ishlab chiqish bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - keksalardagi yolg‘izlik va umr davomiyligi o‘rtasida korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligi o‘rganiladi; - tadqiqot doirasida yolg‘iz keksalar axborot tizimini tahlil qilish, ularga xizmat ko‘rsatgan ijtimoiy xodim assistentlaridan ularning turmush darajasi va xususiyatlari haqida so‘rov o‘tkaziladi; - yolg‘iz keksalar umr davomiyligiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganiladi; - dunyoning boshqa mamlakatlarida yolg‘iz keksalarning hayot sifatiga ta’sir qiluvchi omillar va ijtimoiy himoya tizimi orqali ularni yaxshilashga qaratilgan choralarni adabiyot tahlili asosida o‘rganiladi; - O‘zbekiston yolg‘iz keksalari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda umr davomiyligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar asosida konseptual asoslari yaratiladi; - chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yolg‘iz keksalar va yolg‘iz nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy xizmatlar bilan qamrab olishning alternativ yondashuvlari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya agentligida tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2500 barobari		

****Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 2500 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart***

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	O‘zbekiston tarixi, madaniyati, adabiyoti va san’ati, qadriyatlari, hunarmandchiligini targ‘ib qilishga qaratilgan O‘zbek akademiyasi (“Uzacademy”) platformasini yaratish  	Tadqiqotning shakli: O‘zbekiston tarixi, madaniyati, adabiyoti va san’ati, qadriyatlari, hunarmandchiligini targ‘ib qilishga qaratilgan O‘zbek akademiyasi (“Uzacademy”) platformasini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - platforma uchun loyiha maqsadidan kelib chiqqan holda dizayn namunasi, texnik shartlar ishlab chiqiladi hamda xorijdagi o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun masofaviy ta’lim olish va imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi va imtihon topshiruvchilarga o‘zbek tilini bilish darajasi bo‘yicha sertifikat taqdim etish imkoniyati yaratiladi; - “Uzacademy” platformasini kontent bilan ta’minlash uchun O‘zbekiston tarixi, madaniyati, adabiyoti va san’atiga doir eng so‘nggi manbalar o‘rganib chiqiladi va tahlil qilinadi; - xorijliklar va xorijdagi vatandoshlar uchun Yangi O‘zbekistonning ijobiy imidjini ko‘rsatib bera oladigan taqdimotlar, lavhalar, materiallar tayyorlanadi va platformada aks etadi; - platforma doimiy ravishda O‘zbekiston tarixi, adabiyoti, madaniyati bo‘yicha nashr etilgan eng so‘nggi manbalar bilan to‘ldiriladi; - platformaning O‘zbekiston24”, “O‘zbekiston tarixi”, “Madaniyat va ma’rifat” telekanallari hamda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan integratsiya qilinadi; - platforma ruknlarida foydalanuvchilarga milliy o‘zbek qadriyatlari, hunarmandchiligi, san’ati, adabiyoti, tili haqida 3 tilda materiallar, maqolalar tayyorlanadi; - platforma orqali xorijda o‘zbek tili va madaniyati bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan ilmiy izlanuvchilarning yagona bazasi shakllantiriladi va xorijliklarga o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha A1 darajadan C1 darajagacha bo‘lgan yaxlit darslik majmuasi shakllanadi; - atoqli kinoijodkorlar tomonidan yaratilgan eng sara filmlar ingliz va rus tillaridagi subtitrlari bilan platformaga joylashtiriladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart**

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	“O‘zbek shevalarining izohli lug‘ati”ni tuzish va uning mobil ilovasini yaratish 	Tadqiqotning shakli: “O‘zbek shevalarining izohli lug‘ati”ni tuzish va uning mobil ilovasini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - turkiy tillar orasida eng ko‘p shevaga ega bo‘lgan o‘zbek shevalaridan adabiy tilda uchramaydigan barcha sheva so‘zlari to‘planadi; - to‘plangan sheva so‘z va so‘z birikmalari, iboralar saralanadi; - saralangan sheva so‘zlariga izoh beriladi va har bir so‘zga so‘z birikmalari, jumlar, ya’ni illyustrativ misollar keltiriladi; - o‘zbek sheva so‘zlarining transkripsiyasi tayyorlanadi va o‘zbek shevalari lug‘ati tuziladi; - tilimizning sofligini saqlash maqsadida kirib kelayotgan yangi ajnabiy so‘zlar o‘rniga o‘zbekcha muqobilini topishga yordam beradi; - lug‘atning mobil ilovasi yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2500 barobari

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 5000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi o‘zbek xalq dostonlarining jonli ijroda yozib olingan variantlarini nashrga tayyorlash va elektron platformasini yaratish  	Tadqiqotning shakli: “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi o‘zbek xalq dostonlarining jonli ijroda yozib olingan variantlarini nashrga tayyorlash va elektron platformasini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha Ilmiy-tadqiqot natijalari: - o‘zbek xalq dostonlarining eng sara namunalari jamlanadi va tahlil qilinadi; - “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlarining badiiy jihatdan mukammal variantlari saralab olinadi va tahlil qilinadi; - 15 jildlik o‘zbek xalq dostonlarining jonli ijroda yozib olingan variantlari nashrga tayyorlanadi; - “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlarining tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlariga lug‘at tuziladi; - o‘zbek xalq dostonlarining jonli ijroda yozib olingan variantlarini nashrga tayyorlash va elektron platformasini yaratiladi (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlari misolida). Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi tashkilotlardan sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart**

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	O‘zbek mavsumiy, taqvimiy va oilaviy marosim folklori namunalarini yozib olish hamda veb saytini yaratish  	Tadqiqotning shakli: O‘zbek mavsumiy, taqvimiy va oilaviy marosim folklori namunalarini yozib olish, ilmiy tadqiq etish hamda veb saytini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - O‘zbek mavsumiy, taqvimiy va oilaviy marosimlar bilan bog‘liq folklor namunalari to‘planadi va yozib olinadi; - folklor arxivida mavjud namunalar saralanadi va mavsumiy marosimlarda ijro etiladigan qo‘shiqlarning XX asr oxiri va XXI asrgacha saqlangan shakl, ohang, usul va yo‘llari tahlil qilinadi; - mavsumiy marosimlarda taqvim bilan bog‘liq aytimlar to‘planadi va o‘rganiladi; - hozirgi kunga qadar va hozirgi kunda ijro etiladigan aytimlarning ijro holati qiyoslanadi; - oilaviy-maishiy marosim qo‘shiqlarining o‘ziga xos janr xususiyatlari ochib beriladi; - to‘y marosim qo‘shiqlarining poetik xususiyatlari o‘rganiladi; - mavsumiy, taqvimiy va oilaviy marosim folkloriga oid ma’lumotlar batafsil izohlanadi; - o‘zbek mavsumiy, taqvimiy va oilaviy marosim folklori namunalarini yozib olish, ilmiy tadqiq etish hamda veb saytini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Madaniyat vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart**

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	GAT texnologiyasi asosida O‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid xarita ishlab chiqish  	Tadqiqotning shakli: GAT texnologiyasi asosida O‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid xarita ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - mavjud mehnat resurslari va mehnat migratsiya jarayonlarini takomillashtirishda xorij tajribalari ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilinadi; - mehnat migratsiyasini shakllantirish va boshqarish borasida metodologik qarashlar shakllantiriladi; - ilmiy-tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilish bo‘yicha tegishli talablarga muvofiq xulosa va takliflar ishlab chiqiladi; - O‘zbekiston Milliy universiteti bazasida Migratsiya siyosati, strategiyalari va ustuvor yo‘nalishlarini ilmiy-tadqiqot jihatdan ta‘minlash resurs markazi tashkil etiladi; - O‘zbekistonda migratsiya va mehnat resurslariga oid GAT texnologiyasiga asoslangan xarita ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda hamda O‘zbekiston Milliy universitetida sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari		

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Oliy ta'limni transformatsiya qilish: samarali boshqaruv va ta'lim sifatini ta'minlash tizimini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Oliy ta'limni transformatsiya qilish: samarali boshqaruv va ta'lim sifatini ta'minlash tizimini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga tatbiq etilgan amaldagi kredit-modul tizimidagi mavjud muammolar tadqiq etiladi va Yevropa kreditni transfer qilish va jamg'arish tizimi (ECTS) asosida yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; - oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish orqali o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliyotga va ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan ta'lim tizimi ishlab chiqiladi; - oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasi joriy etish mexanizmi ishlab chiqiladi; - ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish orqali oliy ta'lim muassasasida ichki sifatni ta'minlash strategiyasi ishlab chiqiladi va o'z-o'zini baholash (Self-Evaluation Report) tizimi joriy qilish bo'yicha amaliy ko'rsatmalar va yo'riqnomalar ishlab chiqiladi; - oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv samaradorligi oshirishga qaratilgan samarali boshqaruv (Good Governance)ni tatbiq qilish mexanizmi ishlab chiqiladi; - ustuvor yo'nalishlarda ta'lim va tadqiqot sifati oshiriladi; - tanlab olingan ta'lim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tajriba asosida ta'lim dasturlari takomillashtiriladi va o'quv-metodik materiallar ishlab chiqiladi; - oliy ta'lim muassasalarini boshqaruv mexanizmi takomillashtiriladi; - xalqaro mehnat bozori talablari tahlil etiladi va mazkur xalqaro talablar asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi rivojlantiriladi; - kadrlar tayyorlash, darsliklar va o'quv-metodik majmualarga nisbatan litsenziya huquqlarini keyinchalik ularni tarjima qilish, moslashtirish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatlari bilan birga sotib olish bo'yicha xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, mahalliy va xorijiy tadqiqot markazlari va o'quv muassasalari bilan shartnomalar tuziladi; Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.

Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart**

Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Yolg‘iz (yolg‘iz yashovchi) keksalar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash va oshirishning metodologiyasi hamda elektron platformasini ishlab chiqish 	Tadqiqotning shakli: Yolg‘iz (yolg‘iz yashovchi) keksalar va o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash va oshirishning metodologiyasini hamda elektron platformasini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - yolg‘iz (yolg‘iz yashovchi) keksalar va o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan va nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida savodxonlik darajasini aniqlashning metodologiyasi ishlab chiqiladi; - o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan shaxslar orasida savodxonlik darajasini aniqlash uchun so‘rovnoma ishlab chiqiladi va reprezentativ tanlanma asosida so‘rov o‘tkaziladi; - so‘rov natijalari asosida keksalar orasidagi moliyaviy savodxonlik darajasi va unga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi; - savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha birlamchi takliflar ishlab chiqish xamda keksalar orasida savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar hududlarda sinovdan o‘tkaziladi; - sinov natijalari asosida chora-tadbirlarning natijadorligi aniqlanadi va barcha hududlar uchun tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi; - yolg‘iz (yolg‘iz yashovchi) keksalar va o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bo‘lgan shaxslar orasida moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash va oshirishning metodologiyasini hamda elektron platformasini ishlab chiqish. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya agentligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1750 barobari		

****Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3500 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart***

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Jadidlar ijodiga mansub yozma matnlar diaxronik korpusini yaratish (gazeta nashrlari, nasriy va she'riy asarlari misolida) 	Tadqiqotning shakli: Jadidlar ijodiga mansub yozma matnlar diaxronik korpusini yaratish (gazeta nashrlari, nasriy va she'riy asarlari misolida) bo'yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - jadidlar ijodiga mansub yozma matnlar diaxronik korpusini avtomatik tahlilga tortuvchi mobil ilovasini, gazeta nashrlari misolida jadidlar ijodiga mansub yozma matnlarni diaxronik korpusi hamda nasriy va she'riy asarlarini diaxronik korpusi yaratiladi; - jadidlar ijodiga mansub yozma matnlarni diaxronik korpusga ajratishda matnlarning metamatn va leksiko-grammatik, shu jumladan semantik belgilari bilan bog'liq muammolar hal qilinadi; - korpus ma'lumotlari asosida matn va unga aloqador kontekstlarni, shu jumladan lingvistik, diaxronik, tarixiy o'rganish uchun zamonaviy muhitni tashkil etuvchi chastotali lug'atlar, konkordanslar, indekslar va boshqalar kabi qo'shimcha vositalar yaratiladi; - jadidlar ijodiga mansub gazeta maqolalari, nasriy va she'riy asarlarning original matnlarning tasnifi, lingvistik xususiyatlari, matn parametrlari, janr xususiyatlari ishlab chiqiladi; - diaxronik korpuslarni til birliklarining xronologik chastotasini bo'yicha statistik ma'lumot ishlab chiqiladi; - jadidlar ijodiga oid materiallar muallif, nom, vaqt va makon, asarning janr va stilistik xususiyatlari, hajmi va manbasi haqidagi ma'lumotlar ishlab chiqiladi; - matnlar elektron shaklda kiritiladi, metatavsif beriladi, qidiruv tizimi moduli yaratiladi va matnlar korpusga yuklanadi hamda til birliklarini teglash va leksik-semantik belgilash (razmetka) qilish jarayoni amalga oshiriladi; - jadidlar ijodiga mansub yozma matnlar diaxronik korpusini yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

***Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart**